

**O'ZBEKISTON "YASHIL BYUDJETLASHTIRISH" OSTONASIDA**

*Xudoyberdiyeva Umida Yoqub qizi*  
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*  
*"Moliya" mutaxassisligi 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu tezisda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, yashil byudjetlashtirishning ijobiy jihatlari hamda mamlakatimizda kelajakda ko'zda tutgan maqsadlari yoritilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston kelgusida yashil byudjetlashtirishda amalga oshirmoqchi bo'lgan ayrim rejalari ham aytib o'tilgan.

**Tayanch so'zlar:** byudjet, investitsiya, yashil byudjetlashtirish, ekologiya, yashil investitsiya, iqtisodiy rivojlanish.

2022-yilda muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev Janubiy Koreya Respublikasida bo'lib o'tgan "Yashil o'sish va global maqsadlar uchun hamkorlik-2030" ikkinchi xalqaro sammitida o'z nutqini bayon etganlarida shunday dedilar: "Bugungi kunda ona tabiatning o'zi bizga yo'llayotgan ogohlik qo'ng'irog'iga beparvo bo'lmasligimiz kerak. Afsuski, iqlim o'zgarishlari tobora kuchayib bormoqda. Biz yashayotgan Markaziy Osiyoda so'nggi 30 yilda o'rtacha yillik harorat taxminan bir darajaga ko'tarildi. Bugungi kunda "yashil taraqqiyot" borasidagi maqsadlarga erishish uchun mamlakatlarning harakatlari yanada faol va samarali bo'lishi kerakligiga hech kim shubha qilmayapti. Boshqa choramiz ham yo'q. Biz O'zbekistonda shu yo'nalishdagi muhim ishlarni boshladik."<sup>1</sup> Darhaqiqat, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, yashil byudjetlashtirish hamda yashil iqtisodiyotga o'tish borasida qilinayotgan ishlarga yo'l yo'lakay ko'zimiz tushishi tabiiy.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturidagi (BMTTD) "O'zbekiston Respublikasida barqaror rivojlanishni moliyalashtirish" loyihasi orqali O'zbekiston hukumatiga milliy rivojlanish strategiyalari va barqaror rivojlanish maqsadlarini (BRM) amalda qo'llash uchun integratsiyalashgan milliy moliyalashtirish tuzilmaviy asosini yaratishda yordam bermoqda. BMTTD loyihasidagi rivojlanishni moliyalashtirishda zarur bo'lgan Davlat va xususiy resurslarning safarbarligida ko'maklashishga qaratilgan va bu strategiyalar/islohotlarning 2030-yilga qadar kun tartibining iqtisodiy, ekologik hamda ijtimoiy o'lchovlariga bo'lgan ta'sirini maksimal darajada oshirishda yordam berishga talab qilinayotgan tadqiqotlar va salohiyatini oshirishni ta'minlaydi.

Loyihaning asosiy maqsadlaridan biri davlat budjetini shakllantirish jarayonining BRMlarini samarali tarzda amalda qo'llab-quvvatlashini ta'minlash va

<sup>1</sup> <https://yuz.uz/news/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-yashil-osish-va-global-maqsadlar-uchun-hamkorlik--2030-p4g-ikkinchi-xalqaro-sammitidagi-nutqi>

nazorat qilishdan iboratdir. Ushbu faoliyatda, resurslar mos ravishda yo'naltirilmagan taqdirda Milliy strategiyalar, siyosat hamda dasturlarda BRMLarni namoyon etish o'z-o'zidan natija bermasligini tan oladi. Shuning uchun Hukumatga milliy BRMLarni budjet jarayoniga samarali kiritishda yordamlashish muhimdir.<sup>2</sup>

O'zbekiston o'z budjetida iqlim o'zgarishi bilan bog'liq bo'lmagan ekologiya muammolariga qanday ta'sir ko'rsatishini hisobga olish uchun IBM yondashuvini kengaytirishni rejalashtirmoqda. 2023-yilda iqlimni moliyalashtirish va yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha bir qancha loyihalar amalga oshirilishi natijasida natijada xalqaro tashkilotlar mablag'lari jalb qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 8 avgustdagi "Jahon banki ishtirokida "energetika islohotlari uchun innovatsion uglerod resurslarini qo'llash" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-271-son qarori bilan 2030- yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, milliy iqtisodiyot, xususan, sanoatning kam uglerodli rivojlanishini ta'minlash maqsadida "Energetika islohotlari uchun innovatsion uglerod resurslarini qo'llash" (iCRAFT) loyihasini amalga oshirish uchun Jahon banki tomonidan O'zbekiston Respublikasiga 46,25 mln AQSh dollari miqdorida mablag' ajratilishi ma'qullandi.<sup>3</sup> Loyiha 20,0 mln AQSh dollari miqdoridagi moliyalashtirish hajmiga ega "Qisqartirilgan emissiyalarni sotib olish shartnomasi" komponenti hamda 25,0 mln AQSh dollari miqdoridagi moliyalashtirish hajmiga ega "Oqibatlarni yumshatish natijalarini sotib olish shartnomasi" komponentidan iborat. Ushbu loyiha doirasida ajratilgan mablag'lar quyidagi yo'nalishlarga sariflanishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi birinchi bor 4,25 trln so'm miqdordagi "yashil" suveren umumjahon aksiya-obligatsiyalar hamda 660 million dollar miqdordagi umumjahon obligatsiyalarni London birjasiga joylashtirdi. "Yashil" obligatsiyalar bo'yicha yig'iladigan mablag'lar suv tejaydigan texnologiyalarga jalb etilishi, temir yo'l va metro transportini rivojlantirish, sanitar tozalik ishlarini tashkillashtirish va aholi yashash joylarida tozalikni ta'minlash, shamol eroziyasi va suv xo'jaligi obyektlarining qum bosishiga qarshi ihota daraxtzorlarini barpo etish singari yashil loyihalarni moliyalashtirish uchun yo'naltiriladi. Shuningdek, BMT Taraqqiyot dasturi bilan hamkorlikda loyihalarning amalga oshirilish monitoringi shaffofligini ta'minlash, sarmoyadorlar va keng jamoatchilik uchun investitsiyalarni O'zbekistonning "yashil" va barqaror rivojlanish sohasidagi vazifalariga bo'ladigan ta'siri to'g'risida barcha kerakli ma'lumotlarni taqdim qilish bo'yicha ishlar amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining muhtaram Prezidenti 2022-yil 2-dekabrda "2030-yilgacha

<sup>2</sup> Iqlim o'zgarishi bo'yicha moliyalashtirish, salohiyatni oshirish va xalqaro hamjamiyatning texnologiyalarni uzatish to'g'risidagi MILLIY AXBOROTNOMA

<sup>3</sup> [https://api.mf.uz/media/document\\_files/MILLIY\\_AXBOROTNOMA.pdf](https://api.mf.uz/media/document_files/MILLIY_AXBOROTNOMA.pdf)

O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-son qaror qabul qildilar<sup>4</sup> hamda yashil iqtisodiyotga o'tishning ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda, davlat organlari boshqaruvdagi xodimlarining boshqaruv hamda rejalashtirish salohiyatlarini yanada oshirish, yashil o'sish chora-tadbirlarini rejalashtirish, amalda qo'llash borasida mahalliy Davlat hokimiyati va boshqaruvidagi organlarining salohiyatini yuksaltirish bo'yicha seminarlar tashkillashtirish hamda "Yashil" taraqqiyot choralari rejalashtirish, amalda qo'llash borasida mahalliy davlat hokimiyati hamda boshqaruvi organlarining salohiyat darajasini oshirish va yana boshqa yo'nalishlarda salohiyatni yanada oshirish bo'yicha seminar treninglar tashkil etish ko'zda tutilgan. Shu sababli 2023 yilda ushbu yo'nalishlarda iqtisodiyot va Moliya vazirligi hamda mas'ul vazirlik va idoralar tomonidan seminarlar tashkil qilindi.

**Xulosa** o'rnida shuni ayta olamanki, hukumatimiz "yashil byudjetlashtirish"ni rivojlantirish yo'lida ko'plab ustuvor maqsadlarni o'z oldiga qo'yganligini alohida ta'kidlab o'tishimiz lozim. Bu yo'l davomida ko'plab muammolarni bartaraf etish bilan birga, fuqarolarning yashash sharoitini bir qancha yaxshilay olish imkoniyati turibdi. Zero ko'z ilg'amas kichik muammolar inqiroz darajasiga yetib butun bir xalqni, umuman olganda, insoniyatni parokandalik sari yetaklashi, yoki kichik bir rivojlanish ham mamlakatning taraqqiy etishida hissa qo'shishini unutmashimiz zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. «2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining «yashil iqtisodiyot» iqtisodiyotiga o'tish strategiyasini belgilash to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4477 sonli Qarori.
2. «2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta barqaror yo'nalishi bo'yicha HARAKATLAR STRATEGIYASI» to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947 sonli Farmoni.
3. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X. "Yashil iqtisodiyot" darslik. Toshkent: "Zebo print", 2021-y 71-b
4. Iqlim o'zgarishi bo'yicha moliyalashtirish, salohiyatni oshirish va xalqaro hamjamiyatning texnologiyalarni uzatish to'g'risidagi **MILLIY AXBOROTNOMA**
5. <https://yuz.uz/news/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-yashil-osish-va-global-maqsadlar-uchun-hamkorlik--2030-p4g-ikkinchi-xalqaro-sammitidagi-nutqi>
6. Lex.uz // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.12.2022-yildagi PQ-436-son Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi

<sup>4</sup> Lex.uz // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.12.2022-yildagi PQ-436-son Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi